XALQ DEPUTATLARI OLTINSOY TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-4-015-8-108-K/24 Oltinsoy tumani

Oltinsoy tumanining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalari, “Budjet kodeksi”ning 27-, 99-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” O‘RQ-1011-son Qonuniga muvofiq, va xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-3-016-8-0-K/24-son qaroriga muvofiq hamda Surxondaryo viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 26-dekabrdagi 22-13/979-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari tuman kengashi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining “Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-3-016-8-0-K/24-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur Qonunga muvofiq Oltinsoy tumani mahalliy budjetining 2025-yilgi daromadlari **102 mlrd. 546 mln so‘m** va xarajatlari esa **117 mlrd. 754 mln. 877 ming so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi hamda viloyat budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar **15 mlrd. 208 mln. 877 ming so‘m** miqdorida tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. 2025-yil uchun tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2025-yil uchun tuman budjetidan budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2025-yil uchun tuman budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. 2025-yil uchun tuman mahalliy budjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi 4-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. 2025-yil uchun viloyat budjetidan tuman mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfert miqdori 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

8. 2025-yil uchun tuman mahalliy budjetining zaxira jamg‘armasi hajmlari **1 mlrd. 629 mln** so‘m miqdorida belgilansin.

Tuman mahalliy budjetlarining 2025-yil uchun zaxira jamg‘armalari tasdiqlangan umumiy xarajatlarining (bundan jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish mablag‘lari mustasno) kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin;

tuman mahalliy budjetlarining zaxira jamg‘armalari mablag‘larini amaldagi “Budjet kodeksi”ning 73-moddasiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun ajratilishi ta’minlansin.

9. 2025-yil uchun tuman budjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **367** mln. **379** ming so‘m 6-ilovaga muvofiq belgilansin.

10. Qonunga asosan 2025-yilda:

a) quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to‘lovlar viloyat budjeti hamda shahar va tumanlar budjetlari o‘rtasida taqsimlanadi:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

jarimalar;

qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berishdan tushadigan (3 450 950,3 450 951 daromad kodi bo‘yicha) tushumlar;

davlat aktivlarini sotishdan mahalliy budjetlarga tushumlar;

qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarni realizatsiya qilishdan tushadigan tushumlar;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

b) quyidagi soliq turlari shahar va tumanlar budjetiga to‘liqligicha o‘tkazib beriladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

aylanmadan olinadigan soliq;

davlat mulkini foydalanishga (ijaraga) berishdan tushadigan tushumlar;

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

davlat bojlari;

yig‘imlar (qonunchilikda respublika budjetiga yo‘naltirilishi belgilangan yig‘imlardan tashqari);

e) Yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan barcha soliqlar (mol-mulkni ijaraga berishidan olinadigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i bundan mustasno), soliqsiz tushumlar hamda yuqorida ko‘zda tutilmagan barcha boshqa tushumlar viloyat budjetiga yo‘naltiriladi.

11. Tuman hokimining iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari - Iqtisodiyot va moliya bo‘lim boshlig‘i B. Abdurayimov,

tuman Soliq inspeksiyasi (R. Boymirzayev) tuman hokimligi va mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjet prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;. budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

12. Tuman Soliq inspeksiyasi (R.Boymirzayev) O‘zbekiston Respublikasi “Soliq kodeksi”da belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratish;

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish;

Kadastr bo‘limi boshlig‘i (K. Ulug‘berdiev) bilan birgalikda tumanda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlasin.

13. Tuman Soliq inspeksiyasi (R. Boymirzayev), Kon-geologiya faoliyatini nazorat qilish mintaqaviy inspeksiyasi hamda tuman hokimligi bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

14. Majburiy ijro byurosi Oltinsoy tuman bo‘limi (O. Xolmo‘minov), tuman davlat soliq inspeksiyasi (R. Boymirzayev) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak

boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rib borishni ta’minlasin.

15. Tuman Suv yetkazib berish xizmati DM (X.Qayimov) va tuman Soliq inspeksiyasi (R.Boymirzayev) tuman hokimligi bilan birgalikda tumanda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetlarga to‘liq undirib olish choralarini ko‘rsin.

Bunda, qishoq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resuslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

16. Tuman Ichki ishlar bo‘limi (I. Yusupov), tuman Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi, Majburiy ijro byurosi tuman bo‘limi (O. Xolmo‘minov), tuman Adliya bo‘limi (M. Omonov) hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida o‘rnatilgan tartibda budjetga undirish choralarini ko‘rib borsin.

17. Xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasiga:

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etiladigan takliflarini belgilangan muddatlarda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazish va budjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqish;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatish, tavsiyalar berish va monitoring qilish;

mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etish va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirish vazifasi topshirilsin.

18.Tuman hokimligiga:

tuman budjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirishni;

bunda, xalq deputatlari tuman Kengashi, tuman Yoshlar ishlari bo‘lumi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik Kengashlari hamda hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishni tavsiya etish;

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan obyektlar ro‘yxati, shuningdek, qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borish topshirilsin

19. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari - Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (B.Abdirayimov), tegishli tashkilotlar bilan birgalikda:

mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha xalq deputatlari tuman Kengashiga chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

20. Mazkur qaror tuman “Xalq va hayot” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

21. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

22. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi  MAXMATRAYEMOV BAXROM OMONOVICH

Xalq deputatlari Oltinsoy tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-015-8-108-K/24 -son qaroriga
1-ilova

2025-yildagi asosiy prognoz koʻrsatkichlari

		ming so`mda
T/R	**Daromad turlari**	**Jami**
Mahalliy soliq va tushumlar		**102 546 000,0**
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	
2	Aylanmadan soliq	4 651 000,0
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	55 957 000,0
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	0,0
5	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	
6	**Aksiz solig‘i, jami**	**0,0**
	shu jumladan:	
	- benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq	0,0
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	875 000,0
8	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	7 184 000,0
9	Yuridik shaxslar yer solig‘i	3 376 000,0
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	22 145 000,0
11	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	540 000,0
12	**Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq**	**1 702 000,0**
	Ma‘lumot uchun Qishloq xo‘jaligi korxonalari suv solig‘ining 40 foizini qaytarish (PQ-5)*	*1 029 000,0*
13	Davlat boji	3 764 000,0
14	Yig‘imlar	2 211 000,0
15	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	141 000,0
16	Davlat mulkini xususiylashtirishdan (sotishdan) tushadigan tushumlar	0

Xalq deputatlari Oltinsoy tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-015-8-108-K/24 -son qaroriga
2-ilova

2025-yil uchun Oltinsoy tuman budjetidan birinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘ ajratmalarining cheklangan miqdorlari

ming so`mda

№	Ko‘rsatkichlar	miqdori
	Xarajatlar miqdori. Jami	**117 754 877,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**117 754 877,0**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
1	**Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi tashkilotlarga**	**30 871 719,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	30 871 719,0
	shundan:	
	"Menning maktabim" jamg'armasiga	4 213 090,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
2	**Madaniyat bo‘limi tashkilotlarga**	**7 129 842,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	7 129 842,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
3	**Yoshlar ishlari agentligi bo‘limlari saqlash xarajatlari**	**5 712 558,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	5 712 558,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
4	**Bolalar va o‘smirlar sport maktablari**	**6 421 277,0**
	shu jumladan:	

	joriy xarajatlar	6 421 277,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
5	**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi.**	**1 526 460,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 526 460,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
6	**Veterinariya va chorvachilik rivojlantirish bo‘limi tashkilotilari**	**2 548 557,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 548 557,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
7	**Fermer xo‘jaliklarida buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish markazlarining saqlash xarajatlari**	**366 931,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	366 931,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
8	**Irrigatsiya bo‘limi tashkilotlarga**	**1 628 945,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 628 945,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
9	**Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari**	**2 306 829,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 306 829,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
10	**Oila va Xotin qizlar bo‘limini saqlash xarajatlari**	**3 064 134,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 064 134,0

	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
11	**Davlat boshqaruv hokimligi**	**2 728 433,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 728 433,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
12	**Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari**	**46 234,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	46 234,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
13	**Zahira jamg‘armalari**	**1 629 000,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 629 000,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
14	**Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi**	**26 555 000,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	26 555 000,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
15	**Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati**	**279 489,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	279 489,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
16	**Axborot kutubxona markazi xarajatlariga**	**739 324,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	739 324,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
17	**Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazi**	**6 033 107,0**

	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	6 033 107,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
18	**"Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari**	**1 288 000,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 288 000,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
19	**Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»**	**34 650,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	34 650,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
20	**Ijtimoiy ko‘nikma markazi bo‘limlari**	**41 250,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	41 250,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
21	**Ichki xo‘jalik avtomobil yo‘llarini ta'mirlash xarajatlari**	**4 124 985,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 124 985,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
22	**Obodonlashtirish boshqarmasi saqlash xarajatlari**	**12 678 153,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	12 678 153,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	

Xalq deputatlari Oltinsoy tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-015-8-108-K/24 -son qaroriga
3-ilova

2025-yilda umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar hamda soliq bo‘lmagan to‘lovlar bo‘yicha belgilanadigan ajratma me’yorlari

Foiz hisobida

№	Hududlar nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i				Foyda solig‘i				alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)				pivo				benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i				Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq				Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i			
		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga	
		Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar
1	Oltinsoy tumani	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%

№	Hudud lar nomi	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq				Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq				Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar				Davlat boji		Jarimalar		Yig‘imlar		Aylanmadan soliq		Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i		Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i		Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat’iy miqdorda belgilangan soliq		Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	
		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga
		Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar																	
1	Oltinsoy tumani	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100 %	0%	100%	0%

Izoh: *1.Davlat aktivlarini sotishdan mahalliy budjetlarga tushumlar hamda yer uchastkalariga bo`lgan huquqlarni sotishdan tushgan pul mablag`lari tuman va shaharlar hamda viloyat budjeti o`rtasida teng ulushlarda taqsimlanadi.*

2. Qishloq xo`jaligiga mo`ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berishdan tushadigan (3 450 950, 3 450 951 daromad kodi bo`yicha) tushgan pul mablag`lari tuman va shaharlar hamda viloyat budjeti o`rtasida teng ulushlarda taqsimlanadi.

3. Yirik soliq to`lovchilar tomonidan to`lanadigan barcha soliqlar (mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromadi to`g`risidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to`lanadigan daromad solig`i (Termiz shahardan tashqari) bundan mustasno), soliqsiz tushumlar xamda yuqorida ko`zda tutilmagan barcha boshqa tushumlar viloyat budjetiga yo`naltiriladi.

Xalq deputatlari Oltinsoy tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-015-8-108-K/24 -son qaroriga
4-ilova

Oltinsoy tumani mahalliy budjetlarining 2025-yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

ming so`mda

Hudud nomi	**Daromad**	**Xarajat**
JAMI	**102 546 000,0**	**117 754 877,0**
Oltinsoy tumani	102 546 000	117 754 877

Xalq deputatlari Oltinsoy tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-015-8-108-K/24 -son qaroriga
5-ilova

Oltinsoy tumani mahalliy budjetining 2025-yilgi yuqori budjetdan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so‘mda

Shahar va tumanlar	**Tartibga soluvchi transfert miqdori**
JAMI	**15 208 877**
shundan,	
Oltinsoy tumani	15 208 877

Xalq deputatlari Oltinsoy tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-015-8-108-K/24 -son qaroriga
6-ilova

Oltinsoy tuman mahalliy budjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

T/R	**Hudud nomi**	**Miqdor**
	JAMI	**367 379,0**
	shundan	
1	Oltinsoy tuman	367 379,0